



TARIX FANINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

Usmonova Gulyuz

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilg'or tajribalar, pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar haqida fikr yuritilgan. Mazkur maqolada tarix o'qitish metodikasining insoniyat taraqqiyoti bilan mos ravishda rivojlanish xususiyatlari mahalliy va xorijiy ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari o'quvchilarga dars o'tish davomida qanday metodlardan foydalanish samara berishi, yoshlarda bu fanga qiziqish uyg'otishi to'g'risida mulohazalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarix o'qitish metodikasi, o'quvchi, tarix, didaktika, metod, qiziqarli o'yinlar, venn diagrammasi, bingo mashqi, interfaol usullar

Abstract: This article discusses best practices, pedagogical technologies and interactive methods that serve to increase the efficiency of the education system. This article analyzes the features of the development of history teaching methodology in line with human progress based on local and foreign data. In addition, it provides feedback on what methods can be used to effectively teach students during lessons and arouse interest in this subject among young people.

Keywords: history teaching methodology, student, history, didactics, method, interesting games, Venn diagram, bingo exercise, interactive methods

“Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu



shijoatli buyuk, xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib,yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga,boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz”.

Shavkat Mirziyoyev

Mustaqillik sharofati bilan milliy merosimiz va tengi yo`q tariximizni yanada kengroq o`rganish uchun katta imkoniyatlar bo`ldi. O`z milliy ta`lim tizimimiz, fanlarni o`qitishda o`quvchilarga bilimga qiziqtirish uchun samarali metod va texnologiyalardan foydalanish ancha o`z ahamiyatini ko`rsatib bermoqda. Bugungi kunda zamonaviy ta`limni tashkil etishda rol o`yinlar va interfaol usullardan samarali foydalanishga alohida e`tibor berilmoqda. O`quvchilarda muayyan faoliyat yuzasidan egallagan nazariy bilimlarni amaliy ko`nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta`limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rol o`yinlar, interfaol usullar o`ziga xos o`rin tutadi. Bugungi kunda ta`lim jarayonida qo`llash nihoyatda qulay bo`lgan bir qator o`yinli texnologiyalar yaratilgan. Ta`lim muassasalarida tarix fanlarini o`qitish uzoq tarixga borib taqaladi. Dunyoning barcha davlatlarida o`rta maxsus ta`lim muassasalaridan keyin ham har bir davlat oliy ta`lim muassasalarida o`z yurti tarixini fan sifatida o`rganish davlat fuqarolarini siyosiy, ma`naviy, iqtisodiy va marifiy dunyoqarashini shakllantirishning eng asosiy tayanchi bo`lib xizmat qiladi. Maktablarda ham bu fan o`qitilishi o`quvchilarning o`tmishni o`rganishi va undan xulasalar chiqarishiga sabab bo`lmoqda.

Tarix fani XIX asrdan boshlab rasmiy ta'lim muassasalariga kirishni boshlagan tarix darslarining mazmuni va maqsadlarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: —Tarix o`qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy amaliyotlardan tashkil topadi. O`qitish metodlarini ba'zan o`quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga



qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir. Metodist A.I.Strajev —Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi— deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi:

- tarixiy faktlarni o'rganish metodlari;
- xronologiyani o'rganish metodlari;
- mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari;
- asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari;
- tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

Bundan tashqari ko'zga ko'ringan metodist V.G.Kartsev bu masalada boshqacha yo'l tutadi. U metodlar sistemasiga o'quv harakteriga ega bo'lgan belgilar («Bayon qilish metodi», «so'rash metodi») va umumiy didaktiv vazifalar («materialni o'rganish metodi», «mustahkamlash metodi», «bilimni tekshirish metodi» va boshqalar) ni emas, balki o'quvchilarning tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi.

Tarix fanini o'qitishda bu fanga doir tarixiy empatiyadan foydalanish mumkin. Bunda maktab o'quvchilarning bu fanni tushunish doirasi kengayadi va ma'lumotlarni eslab qolish darajasi oshib boradi. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Rus tadqiqotchilari asarlarida hikoya usulidan darslarida samarali foydalanish haqida so'z boradi. Ular orasida P.V.Goran, A.A.Vagin, P.S.Leibengrublar alohida qayd etiladi. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun A.A.Vagin tomonidan aytilganidrek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi.



Tarixiy empatiya shakllanishining yana bir usuli, bu shaxsiyatdir. Ta'lim oluvchining qalbida taqdirlar, harakatlar, hayot sharoitlari, tarixiy shaxsning faoliyati haqida tasavvur tarixiy shaxsning holati va faoliyatini ijtimoiy hayotdagi odatiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi.¹

Bu fandan dars beruvchi o'qituvchi faqat tarix darsliklari bilan cheklanmasdan adabiyotdan, she'riyatdan, zamonaviy davr voqealaridan xabardor bo'lsa juda yaxshi bo'ladi. O'quvchilarda sana va hukmdorlar tarixini o'rganishda charchab, zerikish holatlari yuzaga keladi. Ana shu vaziyatda tajribali pedagoglar ajoyib mavzuga aloqador biror she'r yoki hazillardan aytsa o'quvchilar tetiklashadi. Darsni o'rganishi ham ancha yaxshilanadi. Boshlang'ich sinflarda bu holat "Quvnoq daqiqalar" deb nomlanadi. Aynan shuni qo'llab bo'lmaydi, katta yoshdagi o'quvchilarga moslashtirib, shunday daqiqalar tashkil etilsa, dars samaraliroq bo'ladi.

Tarix darslarini o'tish uchun foydali bo'ladigan metodlardan biri "Venn diagrammasi" haqida gaplashamiz. "Venn diagrammasi" qiyosiy taxlilda juda qo'l kelib, mavzuni sharhlab, ikki muammoni yoki davlatni bir-biriga muqoyasa qilib o'tishda qulay usuldir. Bu usul ikki doira shaklidagi aylana chiziqlarning qo'shilishi holatida bo'lib doiralarning ikki tarafiga tanlangan mavzuning faqat o'ziga xos individual xususiyatlari yozilib, o'rtada ikki doiraning qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan bo'shliqda esa tanlangan ikki mavzuga xos turli fikrlar, xususiyatlar g'oyalar ko'rinishi izohlab boriladi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu usul o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, xotirani kuchaytiradi. U yoki bu mavzu ustida mustaqil ishlashga undaydi. Ikki mavzuning umumiy va individual, ya'ni faqat o'ziga xos tomonlarini tez farqlaydi. Mavzu tez va uzoq vaqt esda qoladi. "Venn diagrammasi" o'quvchini hushyorlikka, sezgirlikka chorlaydi. O'quvchilar 4-5 tadan uch guruhga, jami 15 taga ajratiladi. 1-guruh doiraning o'ng

¹ <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/download/1862/1722/1909>



tomoni, 2-guruh doiraning chap tomoni, 3-guruh ikki doiraning qo'shilishidan paydo bo'lgan bo'shliq ustida ishlaydi. Mavzuni keng qamrovli o'zlashtirib olishga ko'maklashadi. Guruhdagi qolgan o'quvchilar esa kuzatuvchilardir, ya'ni "Venn diagrammasi" ustida ishlayotgan 3 guruhning harakatlarini kuzatadilar. Hatto baholashlari ham mumkin. Dars, mavzu, harakatlar uzoq vaqtgacha esda saqlanib qoladi. "Venn diagrammasi" turli xil g'oya, fikrlar kurashi va hujumini, munozaralarni keltirib chiqaradi. O'quvchilarni o'ylantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi.

«Bahs-munozara» metodi. Biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs- munozara va fikr almashuv tarzida o'tkaziladigan metoddir.

- a. Munozara yagona masalani hal etish yoki uni tushunish uchun o'tkaziladi. Darsda o'zaro munosabatlarni hal etish taqiqlanadi.
- b. Boshqalar ham gapirishi uchun imkoniyat beriladi.
- c. Fikrlarni o'ylab, maqsadga erishish uchun bayon etish zarur.
- d. Faqat mavzu doirasida fikr yuritish va gapirish talab etiladi.
- e. Fikr bildirayotgan talabalarga yon bosish yoki darsda ularning fikriga qarshi chiqish taqiqlanadi.

O'qituvchi – fikrlarni eshitadi tushuncha va atamalarni to'g'ri qo'llanishi va asosli fikrlar bildirilishini kuzatadi. **Taqrizchi** – eshitilgan fikr yuzasidan tahliliy fikr-mulohaza bildiradi, unga baho beradi. Ma'ruzaning kamchiliklari va xatolarini sharhlab, asosli ravishda tuzatishlar kiritadi. **Tanqidchi** – talabalar va taqrizchi fikrlarini qayd qiladi, xatolarini to'g'rilaydi va tuzatishlar kiritadi. **Ekspert** – bahs-munozaraga baho beradi, bildirilgan fikrlar orqali talabalarni baholaydi.

«Bahs-munozara» metodining yaxshi tomoni o'quvchilar bir-birini eshitishni o'rganadi, mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi, o'quvchilar o'z fikrlarining to'g'ri ekanligini isbotlashga harakat qiladi. «Bahs-munozara» metodining kamchiliklari o'qituvchidan boshqarish mahoratini talab qiladi, bu metodga mos



keladigan mavzuni tanlay olish zarur, sinf xonada shovqin bo'lishining oldini olishi kerak. Bu metoddan foydalanganda o'qituvchi yakuniy xulosani bera olishi zarurdir.

Rol ijro etish o'yinlari – unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. Bu o'yin orqali tarix darslarida tarixiy shaxslarni shaxsiyatini mukammal bilishda foydalaniladi. Masalan, To'maris, Shiroq, Sitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddijn Kubro, Amir Temur, Xusayn Bayqoro, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Shayboniyxon, Amir Olimxon, Nodira, Xudoyorxon, Muhammad Rahimxon II va Dukchi Eshon kabi shaxslarbo'lishi mumkin. Yuqoridagi didaktik o'yinlar va interfaol usullar orqali o'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishi ortadi hamda o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Bingo mashqi. Keltirilgan ma'lumotlarni bir-biriga mos bo'lgan javoblar oldidan raqamlarini qo'ying.

1	Aksionerlik jamiyati		Savdo yoki ishlab chiqarish huquqi yoki imtiyozini beruvchi hujjat
2	Burjuaziya		Aksiyadorlar jamiyati foydasining aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylanadigan qismi
3	Dividend		Savdo sohasida tanho hukmronlik qiluvchi tashkilotlar
4	Savdo monopoliyasi		Aholining savdo-sanoat, bank kabi sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish natijasida daromad topuvchi hamda ishlab chiqarishda yollanma mehnatdan foydalanuvchi toifasi



5	Negosiant		Daromad topish maqsadida hissadorlik qoidalari asosida uyushgan sherikchilik jamiyati
6	Patent		Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi savdogar

Tarix fani bu maktab o'quvchilarning ham kelajak hayotida muhim o'rin tutadi. Tarix fanini maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda bu fanga doir tarixiy empatiyadan foydalanish mumkin. Bunda maktab o'quvchilarning bu fanni tushunish doirasi kengayadi va ma'lumotlarni eslab qolish darajasi oshib boradi. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha mustaqil ravishda krossvord tuzish topshirig'ini bajarishi ham mustaqil bilim olishning bir turini tashkil etadi. Krossvord barcha fanlar bo'yicha tuzilishi mumkin. Krossvordning yuqorida keltirilgan jihatlari tarix darslarida qo'llanishi uchun to'liq asos bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktablarda tarix fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish samaralidir. Viskonsin universiteti tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, maktabdagi qiziqarli o'yinlar, albatta, o'quvchilarning diqqatini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchilaringiz sinfda o'yin o'ynashga qiziqayotganini ko'rish qiyin emas, chunki sinfdagi qiziqarli o'yinlar ko'pincha ko'tarinki bo'ladi va g'alaba qozonish uchun katta e'tibor talab etiladi. O'quvchilar dars jarayonida motivatsiyani his qilsalar, ular hatto eng qiyin o'rganish to'siqlarini ham yengib o'tishlari mumkin.² Darslarni qiziqarli tarzda tashkil etish dasrda qo'llanayotgan metodlardan tashqari, o'qtuvchining o'zi ham pedagogik mahoratini ko'rsata olishi zarur. Bu ikkisi

² <https://ahaslides.com/uz/blog/17-fun-games-to-play-in-class-all-grades/>



birlashsagina dars qiziqarli va tushunarli bo`ladi. Va shuni ham unutmaylikki, “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo`q”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. “O‘zbekiston” NMIU,2018
2. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologii. Pod.red. S.A.Smirnova. – M.: Akademiya, 2004.
3. Aqchayev F.Sh. Tarix fanini o`qitishda innovatsion texnologiyalar. Jizzax, 2014.
4. Abdujabbarova M.A. Tarix darslarida qiziqarli o`yinli usullardan foydalanish. “Science and education” scientific journal. September 2020/Volume 1 Issue 6
5. Farrux Aqchayev. Tarix fanini o`qitishda innovatsion texnologiyalar. O`quv uslubiy qo`llanma. Jizzax- 2014 “Sangzor” nashriyoti
6. Og`ayev S. Yangi pedagogik texnologiyalar – hayotiy ehtiyoj. Xalq ta'limi jurnali, 2001, 3-soni.
7. <https://ahaslides.com/uz/blog/17-fun-games-to-play-in-class-all-grades/>